

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZBEKISTON
MILLIY ELEKTR
TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI

100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.
Tel: (998-71) 208-56-01, Faks: (998-71) 208-56-60
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Veb-sahifa: www.uzbekistonmet.uz



THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOINT STOCK COMPANY
“NATIONAL
ELECTRIC GRID
OF UZBEKISTAN”

42, Osiyo str., Yunusobod dist.; 100084, Tashkent
Ph: (998-71) 208-56-01, Fax: (998-71) 208-56-60
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Web-site: www.uzbekistonmet.uz

16.12.2024-yil

01-03-18/6654-son

**Toshkent viloyati Qibray tumani
Farovon MFY, Baxt ko‘chasi
53-xonadonda yashovchi fuqaro
Sh. Z. Suvanovaga**

Sizning yozma arizangiz bo‘yicha joyiga chiqqan holda o‘rganishlar olib borildi va uning natijasida arizada ko‘rsatilgan manzil 220 kV kuchlanishli L-2-K-3 havo tarmog‘ining 110-111-sonli tayanchlari oralig‘ida joylashganligi aniqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil 26-dekabrda 1050-sonli qarorining 14-bandida 220 kV kuchlanishli elektr uzatish havo tarmog‘ining muhofaza maydoni tarmoq bo‘ylab, chetdagi simlardan har ikkala tomonga 25 metr masofadagi parallel vertikal tekisliklar bilan chegaralangan yer uchastkasi va havo makoni belgilangan bo‘lib, elektr uzatish tarmog‘ining muhofaza maydonida qurilmalarni ta‘mirlash imkoniyati saqlanishi va elektr tokidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfni inobatga olgan holda bino-inshootlarning qurilishi taqiqlanadi.

Ma‘lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrda 1050-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalari”ning to‘liq matnini internetdagi ochiq ma‘lumotlar bazasidan yuklab olish mumkin.

**Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari**



S. Artikov